



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№3. [3]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



2025-yil, №3/[3]-son



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-
AMALIY ELEKTRON JURNALI**

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriiddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), dots.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD).

Dehkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriiddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr 725 sahifa. E‘lon
qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat
etildi.

MUNDARIJA

Iqtisodiyot fanlari

Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna

Mehnat munosabatlarini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....8

Qodirova Xolida Salimovna

Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmini zamonaviy shakllarini barqaror rivojlantirish yo'nalishlari.....14

Norqobilov Jahongir Isroil o'g'li

Avtotransport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy baholash mohiyati.....23

G'iyosov Ilhom Karimovich, Raxmatov Oybek Yangiboyevich

Qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash.....33

Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Хамрокулова Райхона Фаридуновна

Демографические изменения и их влияние на макроэкономическую динамику.....42

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Xudoyberdiyev Safar Asadullo o'g'li

Eksport salohiyatidan samarali foydalanishda mahsulot sifatini oshirishning o'rni.....49

Бегматов Хусан Эгамкулович

Молиявий ҳисоботларни тузишда хорижий тажрибани қўллаш масалалари.....60

Vafoeva Dilafruz Ikromovna

Sun'iy intellekt, blockchain va kriptovalyutalar: iqtisodiy o'zgarishlar va yangi imkoniyatlar.....74

Ochilov Ilhom Sayitqulovich

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga global iqlim o'zgarishi ta'siri tahlili.....82

Bustonov Komiljon Kumakovich, G'aniev Baydulla Toshmurodovich

Qishloq xo'jaligida turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish.....89

Abdullaeva Go'zal Altinbekovna, Abdullaev Altinbek Yangibaevich

Tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligi holatining tahlili va rivojlanish tendensiyalari.....96

Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li

Kichik korxonalar hisob siyosatida soliq hisobini tutgan o'rni.....117

Zikirov Zafarjon Izzatillo o'g'li

Qo'shilgan qiymat solig'idagi salbiy farq va ortiqcha to'lov yuzaga kelishi hamda ushbu tushunchalar farqining mazmuni va iqtisodiy mohiyati.....126

Рашидов Жамшид Хамидович

Яшил иқтисодиётни инновацион бошқаришда хавф-хатарларнинг таъсири ва уни камайтириш йўллари.....133

Zulfiqarov Xolbek Ubaydulla o'g'li

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirish.....138

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Mamlakatimizda turizm klasterini yaratish va davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish.....145

Davlatov Sanjar Abdimannonovich

Qishloq xo'jaligi sohasida biznes muhitini rivojlantirish.....153

Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

Joriy aktivlar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tashkiliy jihatlarini.....164

Расулова Мухаббат Тишабаевна

Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва хорижий тажрибалар.....173

Zakimov Aybek Muratbayevich

Awil xo'jaligida kooperatsiyani raxajlandiriwdiñ institucionalliq qatnasí.....183

Yusupdjanova Nargiza Utkirovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi

O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish stavkasining iqtisodiyotga ta'siri.....189

UO‘K: 658.64.624.024.1

**AVTOTRANSPORT XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY
BAHOLASH MOHIYATI****NORQOBILOV JAHONGIR ISROIL O‘G‘LI**

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: norkobilovjakhongir@gmail.com<https://orcid.org/0009-0005-4550-8806>

Annotatsiya. Maqolada avtotransport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy baholash mohiyati va avtotransport foydalanish xizmatini baholashning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, avtotransport xizmatlaridan vositalarining rivojlanishi, ulardan foydalanishda aholiga xizmat ko‘rsatish sifati va aholining turmush sifatini oshirish borasida baholash xizmatini samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish masalalari tahlil qilingan. Avtotransport xizmatlaridan foydalanishni baholash boshqa turdagi obyektlarni baholashdan prinsipial farq qilishi ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: avtotransport vositalari, xizmat ko‘rsatish, baholash, xususiyatlari, aholi turmush sifati, qiymat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi ehtiyojlari, milliy an‘ana va qadriyatlar, rivojlanish bosqichlari.

Аннотация. В статье рассматривается сущность экономической оценки использования услуг автотранспорта, а также возникновение и этапы развития оценки использования услуг автотранспорта. Также были проанализированы вопросы эффективного развития оценочных услуг, повышения качества обслуживания населения и качества жизни населения в сфере развития автотранспортных услуг, повышения достоверности результатов оценки. Также было учтено, что оценка использования услуг автотранспорта принципиально отличается от оценки других видов объектов.

Ключевые слова: автотранспортные средства, сервис, оценка, характеристики, качество жизни населения, ценность, социально-экономическое развитие, потребности населения, национальные традиции и ценности, этапы развития.

Abstract. The article discusses the essence of the economic assessment of the use of motor transport services and the emergence and stages of development of the assessment of motor transport services. Also, the development of motor transport services, the effective development of the assessment service in terms of improving the quality of service to the population and the quality of life of the population during their use, and the issues of increasing the reliability of the assessment results are analyzed. The fact that the assessment of the use of motor transport services is fundamentally different from the assessment of other types of objects is also considered.

Keywords: motor transport, service, assessment, characteristics, quality of life of the population, value, socio-economic development, population needs, national traditions and values, stages of development.

KIRISH

Mamlakatimizda aholining turmush sifatini oshirish borasida avtotransport vositalarini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish va ochiqlikni ta'minlash kabilar yuzasidan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada avtotransport vositalarini baholash tasnifini takomillashtirish, baholashning samaradorligini belgilovchi ko'p o'lchovli iqtisodiy-matematik modelini yaratish, baholash xizmatlarining barqaror rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Qiymatni baholash nazariyasining uslubiy ildizlari iqtisodiyot nazariyasida, asosan mikroiqtisodiyot, marketing, buxgalteriya hisobi va bahoni shakllantirish kabi fanlarda yashiringan. Baholashning nazariy yo'nalishlari qiymat kategoriyasi, uning mohiyati va boshqa iqtisodiy kategoriyalar (baho, qimmatlilik, naflilik, sifat va boshqalar) bilan o'zaro aloqalari o'rganiladigan qiymat nazariyasidan kelib chiqadi. Uzoq yillar davomida turli ilmiy maktablarning iqtisodchi-olimlari tomonidan "qiymat" kategoriyasi atrofida muhokamalar olib borilmoqda. Baholash maqsadi va uning natijalaridan foydalanishning belgilanishiga qarab qiymatning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi vaqtda shunday qarash mavjud: qiymat keng iqtisodiy ma'noda vaqtning ma'lum lahzasidagi obyekt foydaliligi va unga bo'lgan mulkiy huquqning puldagi ifodasidir. Shunday qilib, qadrilik va naflilik – bu obyekt qiymatini belgilaydigan xossalar. Bu shuni anglatadiki, obyekt qiymatini baholash uchun, birinchi navbatda, uning naflilikini baholash va obyekt faoliyati natijalariga ozgina bo'lsa ham qiziqishi bo'lgan barcha kontragentlar ehtiyojlarini tahlil qilish lozim.

Avtotransport vositalarini baholashni rivojlantirishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida moliya sektori va xususilashtirish jarayonini tartibga solish, baholashning yondashuv va usullarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida avtotransport vositalarini baholash uslubiyatini natijalarning ishonchlilik darajasiga ko'ra takomillashtirish, baholashning samarali faoliyati muammolarini bartaraf etishning samarali yo'llarini asoslash, baholashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda aholi turmush sifatini oshirish borasida avtotransport vositalarini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish va ochiqlikni ta'minlash kabilar yuzasidan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada avtotransport vositalarini baholash tasnifini takomillashtirish, baholashning samaradorligini belgilovchi ko'p o'lchovli iqtisodiy-matematik modelini yaratish, baholash xizmatlarining barqaror rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4381-sonli "Baholash faoliyatini yanada takomillashtirish hamda past rentabelli va faoliyat yuritmayotgan davlat ishtirokidagi korxonalarni sotish mexanizmlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 1-iyundagi PQ-3764-sonli "Baholash xizmatlari bozorini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2008-yil 24-apreldagi PQ-843-sonli "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtotransport vositalari qiymatini baholash muammolari milliy va xorijiy olimlar hamda milliy mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda.

Xorijiy olimlar J.Fishmen, Sh.P.Pratt, K.Griffit, K.Uilson[1], Z.Merser, T.Harms[2], Yu.V.Andrianov[3], V.P.Antonov, E.V.Antonova[4], A.P.Kovalyev, A.A.Kushel[5], A.V.Yudin[6] kabilar biznes (korxona), mashina va uskunalarni baholash xizmatlarini o'rganishgan, ammo avtotransport vositalarini baholash xizmatlarining o'ziga xos tomonlari ushbu olimlar ishlarida chuqur o'rganilmagan.

Milliy iqtisodchi olimlarimizdan B.Berkinov[7], M.M.Muhammedov[8], A.I.Alikulov [9] va boshqa olimlarning tadqiqotlari biznesni baholashning nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda avtotransport vositalarini baholash xizmatlarining nazariy asoslari tadqiq qilingan va uni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Mulk sifatida avtotransport vositalari o'ziga xos tomonlarga ega va baholash jarayonida ularning bu xususiyatlari birlamchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida avtotransport vositalarini baholashning metodikasini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avtotransport vositalari xizmatlarini baholash xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Qiymatni baholash nazariyasining uslubiy ildizlari iqtisodiyot nazariyasida, asosan mikroiqtisodiyot, marketing, buxgalteriya hisobi va bahoni shakllantirish kabi fanlarda yashiringan. Baholashning nazariy yo'nalishlari qiymat kategoriyasi, uning mohiyati va boshqa iqtisodiy kategoriyalar (baho, qimmatlilik, naflilik, sifat va boshqalar) bilan o'zaro aloqalari o'rganiladigan qiymat nazariyasidan kelib chiqadi. Uzoq yillar davomida turli ilmiy maktablarning iqtisodchi-olimlari tomonidan "qiymat" kategoriyasi atrofida muhokamalar olib borilmoqda. Baholash maqsadi va uning natijalaridan foydalanishning belgilanishiga qarab qiymatning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi vaqtda shunday qarash mavjud: qiymat keng iqtisodiy ma'noda vaqtning ma'lum lahzasidagi ob'ekt foydaliligi va unga bo'lgan mulkiy huquqning puldagi ifodasidir. Shunday qilib, qadrilik va naflilik – bu ob'ekt qiymatini belgilaydigan xossalr. Bu shuni anglatadiki, ob'ekt qiymatini baholash uchun, birinchi navbatda, uning nafliligini baholash va ob'ekt faoliyati natijalariga ozgina bo'lsa ham qiziqishi bo'lgan barcha kontragentlar ehtiyojlarini tahlil qilish lozim. Shu sababli dastlab baholash, baholamoq, qiymat va baho, baholovchi kabi asosiy ibora va tushunchalarning iqtisodiy mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

“**Baholamoq**” fe’li baholash maqsadiga qarab turlicha ma’nolarni anglatadi: nimaningdir bahosini aniqlash, qiymatini belgilash, miqdorini baholash, sifati yoki qadri haqida hukm chiqarish. Avtotransport vositalarini baholashda baholovchi ob’ekt qadrini aniqlash uchun nafaqat miqdoriy va sifat parametrlarni belgilaydi, balki uning qiymatini ham aniqlaydi.

“Baholash” tushunchasiga baholash faoliyati sohasi olimlari tomonidan turlicha talqin berilgan. Xususan, N.V. Smirnova: “Ixtiyoriy ob’ektning qiymatini baholash ma’lum bozor sharoitlarida ular keltiradigan potensial va real daromadni hisobga olgan holda pulda ifodalangan ob’ekt qiymatini aniqlashning tartiblashtirilgan, maqsadga yo’naltirilgan jarayonini o’zida aks ettiradi” — deb ta’riflagan[10].

Baholash xizmati deganda, yoki mulkni baholash bo’yicha harakat, yoki mulk qiymati haqida xulosa berish, yoki mulkni baholash bo’yicha tadqiqot natijalari taqdim qilingan hisobotni taqdim qilish tushuniladi. Bu baholash ob’ektini chuqur o’rganishga asoslangan qiymat haqidagi xolis fikr. Baholashda ko’p sub’yektivlik mavjud, yakuniy natijaga baholovchining malakasi va etikasi, uning ichki sezgisi va adolatliligi, vaziyatni anglashi ta’sir qiladi. Shuning uchun bir necha mustaqil baholovchilar tomonidan amalga oshirilgan huddi shu ob’ektning baholanishi bir-biridan farq qiladi. Qiymat, narx va baho – bu turli tushunchalar.

Qiymat deganda pulda ifodalangan mulk qadri tushuniladi¹.

Narx deganda mulk ob’ekti uchun to’lanadigan, odatda tannarx va foyda yig’indisi sifatida namoyon bo’ladigan qiymat tushuniladi.

Baho deganda mulk ob’ekti realizatsiya qilish lahzasida bozor holatidan kelib chiqqan holda xaridor va sotuvchi o’rtasida tuzilgan kelishuvni aks ettiruvchi qiymat tushuniladi.

Baholash xizmatlari bugungi kunda alohida iqtisodiy faoliyat sifatida xizmatlar sohasining bir yo’nalishi hisoblanadi. Baholash xizmatlariga “Baholash faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunida quyidagicha ta’rif berilgan: “Baholash faoliyati baholovchi tashkilotning baholash ob’ekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir”².

D.S.Kondrashovning ilmiy ishida “baholash faoliyati” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: “baholash ob’ektiining bozor, investitsion, tugatish, kadastr yoki boshqa qiymatini baholovchi tomonidan qonunda mustahkamlangan huquqlarni amalga oshirish hamda profesionalizm, mustaqillik, to’liqlik, ishonchlilik va maxfiylik tamoyillariga muvofiq o’z majburiyatlarini bajarish yo’li bilan aniqlashga qaratilgan baholovchi huquqiy maqomiga ega jismoniy shaxsning professional faoliyati” [11].

N.V. Fetisov baholash faoliyatini keng va tor ma’noda farqlash lozim deb hisoblaydi: “Keng ma’noda baholash faoliyati deganda ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida mulk qiymatini aniqlash tushuniladi. Tor ma’noda baholash faoliyati deganda bitimlarni tuzish, shuningdek boshqa maqsadlar uchun baholash ob’ektlariga nisbatan bozor yoki boshqa qiymatni belgilashga qaratilgan baholash faoliyati sub’ekti faoliyati tushuniladi” [12].

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar va o'rganilgan adabiyotlarning tahlili asosida biz o'z ta'rifimizni ishlab chiqdik:

Baholash xizmatlari deganda malaka sertifikatiga ega baholovchilarni o'zida birlashtirgan baholash faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega baholash tashkilotlarining xizmatlari iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asoslanib baholash maqsadi va aniqlanadigan qiymat turidan kelib chiqqan holda ma'lum turdagi mulkning (ko'char mulk, ko'chmas mulk, biznes (korxona), nomoddiy aktivlarning) bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati turi tushuniladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, avtotransport vositalarini baholash xizmatlari bo'yicha milliy baholash sohasida uslubiy metodika deyarli mavjud emas. Shuning uchun bu sohada ma'lum bir atamalarni sharhlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

“Avtotransport vositalari xizmatlarini baholash” tushunchasiga hozirgacha bironta adabiyotda ilmiy ta'rif berilmagan. Shuning uchun ishda bu atamaning iqtisodiy mohiyatini to'la aks ettiruvchi ta'rif ishlab chiqildi:

“Avtotransport vositalari xizmatlarini baholash deganda mutaxassis tomonidan asosiy baholash tamoyillari asosida baholashning yondashuvlari va usullarini qo'llash orqali avtotransport vositalarining izlanayotgan (tavsiya etilayotgan) qiymatini aniq vaqt lahzasi va makonida ma'lum tartib-taomillar va harakatlar asosida amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan va mantiqiy ketma-ketlikda aniqlash jarayoni tushuniladi”³.

Baholash xizmati professional asosga ega mutaxassis – baholovchi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda, boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, baholash xizmatlari faqatgina huquqiy sub'ektlar tomonidan ko'rsatiladi (boshqa mamlakatlarda baholovchi yakka tadbirkor sifatida ham faoliyat yuritishi mumkin). Ushbu tashkilotlarda shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan malaka sertifikatiga ega baholovchilargina o'z xizmatlarini sotishlari mumkin.

Shu o'rinda avtotransport vositalarining qiymati tushunchasiga ham izoh berib o'tish maqsadga muvofiq. Bu tushuncha avtotransport vositalarini baholash sohasidagi mutaxassis olimlar tomonidan ta'riflangan. Mazkur ta'riflarni tahlil qilgan holda, eng maqbul xususiyatlarni e'tiborga olgan holda quyidagi muallif ta'rifi ishlab chiqildi: **“Avtotransport vositalari xizmatlarining qiymati** deganda avtotransport vositalarining aniq bir vaqt lahzasida bozordagi holatdan kelib chiqqan holda xaridor va sotuvchi o'rtasida belgilangan qadrining puldagi ifodasi tushuniladi”⁴.

Sohaga oid ilmiy izlanishlarni o'rganish asosida “Avtotransport vositalarini baholash xizmatlari” tushunchasining bugungi kunda aniq ta'rifi ishlab chiqilmaganligi haqida xulosa qilish mumkin. Mavjud adabiyotlar va ilmiy ishlarni o'rganib tahlil qilgan holda quyidagi ta'rifni ishlab chiqdik:

“Avtotransport vositalarini baholash xizmatlari deganda litsenziyali baholash tashkilotlarining xizmatlar iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asoslanib baholash maqsadi va tanlangan qiymat turiga muvofiq avtotransport vositalarining

³. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan baholash xizmatlarining turi tushuniladi”⁵.

Baholash obyekti manfaatdor shaxslarning manfaatlari va baholash natijalaridan foydalanish maqsadlari nuqtai nazardan turlicha qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun qiymat tushunchasini qo‘llashni faqat aniqlanayotgan qiymatning aniq turini ko‘rsatish bilan amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Baholash obyekti qiymati turlarining ro‘yxati va tushunchalari baholash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar uchun qo‘llash majburiy bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standarti’da keltirilgan. Avtotransport vositalarini baholashda foydalaniladigan, baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga javob beradigan qiymatining asosiy turlarining nomlanishi va ularning takomillashgan ta’riflari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Avtotransport vositalari xizmatlarini baholashda foydalaniladigan qiymatning asosiy turlari ⁶

№	Qiymatning turlari	Ta’rifi
1	Bozor qiymati	Bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narx tushunilib, unga ko‘ra mazkur baholash obyekti ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa, biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi.
2	Bozor ijara haqi	Bozor ijara haqi qiymati etarli marketing o‘tkazilgandan keyin tuzilgan tijorat bitimi natijasida manfaatdor sotuvchi va xaridor o‘rtasida tegishli ijara shartlarida baholash sanasida mulk huquqini ijara berish mumkin bo‘lgan hisoblab chiqilgan-baholangan pul miqdori bo‘lib, bunda har bir taraf etarlicha axborotga ega bo‘lgan holda, oqilona va majburlosiz harakat qilgan deb tushuniladi.
3	Adolatli qiymat	Adolatli qiymat deganda aktiv, aniq belgilangan va barcha zarur axborotga ega bo‘lgan manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlanganda (mulk sotilganda yoki qarzdorlik hisobdan chiqarilganda) ushbu taraflarning manfaatlarini aks ettiradigan, hisoblab chiqiladigan-baholnadigan pul miqdori tushuniladi.
4	Investitsiya qiymati	Investitsiya qiymati deganda aktivning aniq egasi yoki potensial egasi uchun ularning xususiy investitsiyaviy yoki operatsion (xo‘jalik) maqsadlari hisobga olinadigan qiymat tushuniladi.
5	Sinergetik qiymat	Sinergetik qiymat ikki va undan ortiq aktivlar yoki ishtirokchilikdagi ulushlarning birlashtirilishi natijasida qiymatning umumiy yig‘indisi summasi ularning alohida-alohida olingan qiymatlari summasidan ortiq bo‘lib chiqqanda hosil bo‘ladi.
6	Tugatish qiymati	Tugatish qiymati deganda aktiv yoki aktivlar guruhini qismlarga bo‘lib-bo‘lib sotib yuborganda olinishi mumkin bo‘lgan summa tushuniladi.

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


7	Yo'q qilish qiymati	Yo'q qilish qiymati deganda baholash obyektining uni tashkil etgan materiallarning bozor qiymatiga teng qiymati tushuniladi.
8	Almashtirishning qoldiq qiymati	Almashtirishning qoldiq qiymati deganda baholash obyektiga o'xshash obyektni yaratishga ketgan xarajatlarning baholashni o'tkazish sanasida mavjud bozor narxlaridagi baholash obyektining eskirishini hisobga oluvchi qiymati tushuniladi.
9	Takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati	Takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati deganda baholash obyekti bilan bir xil obyektni bir xil materiallar va bir xil texnologiyalardan foydalangan holda yaratishga sarflanadigan, baholashni o'tkazish sanasida mavjud bozor narxlarida o'lchanadigan, baholash obyektining eskirishini hisobga oluvchi xarajatlar summasi tushuniladi.
10	Maxsus qiymat	Maxsus qiymat bozor qiymatidan ortiq summa bo'lib, faqat maxsus xaridor (alohida manfaatga ega bo'lgan) uchun qiymatga ega bo'lgan aktivlarning muayyan tavsiflarini aks ettiradigan qiymat tushuniladi.
11	Sug'urtaga oid qiymat	Sug'urtaga oid qiymati deganda mulkning shartnoma yoki sug'urta polisi qoidasi-da nazarda tutiladigan qiymati tushuniladi.
12	Soliqqa oid qiymat	Soliqqa oid qiymat deganda amaldagi soliq qonunchiligi asosida hisoblab chiqiladigan qiymat tushuniladi.
13	Ta'mir (tiklash) qiymati	Ta'mir (tiklash) qiymati deganda mehnat va moddiy xarajatlar, ustama xarajatlar, soliq va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan korxonaning foydasini o'z ichiga olgan baholash obyektining nosozliklarini bartaraf etish qiymati tushuniladi.
14	Shikastlanishdan zarar qiymati	Shikastlanishdan zarar qiymati deganda shikastlanish natijasida baholash obyekti qiymatining pasayish miqdori yoki ta'mirlash bo'yicha alohida turdagi ishlarni bajarishda yuzaga keladigan zarar hisobga olgan holda shikastlangan baholash obyektini shikastlanganunga qadar bo'lgan texnik holatga keltirish uchun ta'mirlash (tiklash)ga ketadigan xarajatlar yig'indisi tushuniladi.
15	Konstruktiv elementlar (ehtiyot qismlar) qiymati	Konstruktiv elementlar (ehtiyot qismlar) qiymati deganda raqobat sharoitida ochiq bozorda sotilishi mumkin bo'lgan baholash obyektining konstruktiv elementlari (ehtiyot qismlari)ning ehtimoli eng yuqori bo'lgan bahosi tushuniladi, bunda barcha zaruriy axborotlarga ega bo'lgan holda kelishuv tomonlari oqilona harakat qilishadi, lekin bitim bahosining miqdoriga qandaydir favquloddagi holatlar ta'sir ko'rsatmaydi.
16	Ta'mir bo'yicha xizmatlar qiymati	Ta'mir bo'yicha xizmatlar qiymati deganda raqobat sharoitida ochiq bozorda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan baholash obyektining ta'miri bo'yicha xizmatlarning bir birlik mehnat sig'iminining ehtimoli eng yuqori bo'lgan bahosi tushuniladi, bunda barcha zaruriy axborotlarga ega bo'lgan holda kelishuv tomonlari oqilona harakat qilishadi, lekin bitim bahosining miqdoriga qandaydir favquloddagi holatlar ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu jadvalda baholash xizmatlarining iste'molchilari maqsadlaridan kelib chiqib aniqlanadigan qiymatning turlari va ularning ta'rifi berilgan. Baholovchi buyurtmachining talabidan kelib chiqqan holda yuqoridagi qiymat turlaridan birini tanlab, baholash xizmatlarini ko'rsatadi.

Avtotransport vositalarini baholash xizmatlari bir nechta ketma-ketlikdagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1-rasm):



1. Buyurtmachi bilan baholash xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish;
2. Baholash obyektining identifikatsiyasi;
3. Baholash obyektiga taalluqli bo'lgan bozorni o'rganish;
4. Baholash yondashuvlari va usullarini tanlash va baholash jarayonini amalga oshirish;
5. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish va baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash;
6. Baholash to'g'risidagi hisobot tayyorlash va buyurtmachiga topshirish.



1-rasm. Avtotransport vositalari xizmatlarini baholash jarayonining bosqichlari⁷

Har qanday mulkni baholash xizmatlarini ko'rsatish yuqorida keltirilgan ketma-ketlikdagi bosqichlarda sertifikatli mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi va bu jarayonning oxirgi natijasi sifatli, ishonchli va haqqoniy baholash to'g'risidagi hisobot hisoblanadi.

Ushbu rasmda berilgan baholash jarayonining bosqichlari baholash xizmatlarining barcha yo'nalishlariga taalluqli. Baholash jarayoni kelishuvdan boshlanadi. Dastavval shartnoma tuziladi, keyinchalik asosiy baholash jarayoni boshlanadi. Shundan so'ng baholashning maqsadi belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtotransport vositalari xizmatlarini baholashning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati, avtotransport vositalarini baholashning mohiyati va mazmuni

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



hamda kelib chiqish sabablari, shuningdek o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Eng asosiy xususiyatlaridan biri – bu avtotransport vositalari ko'chmas mulk, korxona va nomoddiy aktivlar singari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va egalik huquqi tasdiqlanishidir.

Baholashning alohida turi sifatida avtotransport vositalari xizmatlarini baholash tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

“Avtotransport vositalari xizmatlarini baholash deganda litsenziyalik baholash tashkilotlarining iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asosan baholash maqsadi va tanlangan qiymat turiga muvofiq avtotransport vositalarining bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan baholashning turi tushuniladi.”

Mulk qiymati – sotuvchi va xaridorning mulkdan olinishi mumkin bo'lgan naf va mulk qadrlarining puldagi ifodasi. Avtotransport vositalari qiymati turlarining ta'riflari manfaatdor shaxslarning manfaatlari va baholash natijalaridan foydalanish maqsadlari nuqtai nazardan takomillashtirildi.

Milliy va xorijiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislari va olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida, zamonaviy baholash yondashuvlarini hisobga olgan holda avtotransport vositalarining zamonaviy tasnifi ishlab chiqildi. Baholash nuqtai nazardan avtotransport vositalarining tasnifi baholovchilarga baholash obyekti mansub bo'lgan bozorni tahlil qilish, analoglarni va turdosh obyektlarni tanlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фишмен Дж., Пратт Ш.П., Гриффит К., Уилсон К. Руководство по оценке стоимости бизнеса. Пер. с англ. Л.И. Лопатников. Российское издание под редакцией В.М.Рутгайзера. – М.: ЗАО КВИНТО-КОНСАЛТИНГ, 2000. – 388 с.
2. Мерсер З., Хармс Т. Интегрированная теория оценки бизнеса/Под научн. ред. В.М.Рудгайзера (пер. с англ. Л.И.Лопатников). – М.: Маросейка, 2008. – 288 с.
3. Андрианов Ю.В. Оценка транспортных средств. – М.: Дело, 2003. – 488 с.
4. Оценка стоимости машин и оборудования. Учебное пособие/ Антонов В.П., Антонова Е.В. – М.: Ассоциация “Русская оценка”, 2005. – 254 с.
5. Ковалев А.П., Кушель А.А. и др. Оценка стоимости машин, оборудования и транспортных средств. Учебник для ВУЗов – М.: Интерреклама, 2003. – 488 с.
6. Юдин А.В. Оценка стоимости транспортных средств. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2005. – 75 с.
7. Беркинов Б., Кравченко А. Бизнесни баҳолаш: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод ва молия, 2007. – 152 б.;
8. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2018. – 272 б.
9. Ходиев Б., Аликулов А. И. Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2010. – 196 б.

10. Смирнова Н.В. Теория и практика оценочной деятельности / Н.В. Смирнова, С.М. Волостнов; Иван. гос. хим.-технол. ун-т: учеб. Пособие. – Иваново – 164 с. Рус тилидан муаллифнинг таржимаси.

11. Кондрашов Д.С. Гражданско-правовое регулирование оценочной деятельности в России: проблемы теории и практики: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / Кондрашов Дмитрий Сергеевич. – Москва, 2012. [Электронный ресурс]. – 15.05.2015. – URL: <http://www.dslib.net/civil-pravo/grazhdansko-pravovoe-regulirovanieocenочноj-dejatelnosti-v-rossii-problemy-teorii.html>

12. Фетисова Н.В. Определение понятия оценочной деятельности // Вестник ВолГУ. Серия 9. Вып. 4. 2005. Ч 1. С. 48-51.

13. Ўзбекистон Республикаси Ягона миллий баҳолаш стандарти, Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг 2020 йил 1 майдаги 01/11-15/62-сон буйруғига 1-илова. <https://lex.uz/docs/4842496>

14. Ўзбекистон Республикаси Ягона миллий баҳолаш стандарти, Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг 2020 йил 1 майдаги 01/11-15/62-сон буйруғига 1-илова. <https://lex.uz/docs/4842496>

15. Ўзбекистон Республикасининг “Баҳолаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни, 1999 йил 19 август, 811-I-сон. 3-модда. <https://lex.uz/docs/24703>

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.



“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**